

CHET ELDAGI SHAHAR KO'CHA-YO'L TARMOQLARIDAGI  
TIRBANLIKLARNI TAHLIL QILISH VA TEGISHLI XULOSA BERISH

*Assistent Ergasheva M.Z., magistrant: Axatova K.SH.*

*(Toshkent davlat transport universiteti)*

*[Tel:+99893-761-26-03](tel:+99893-761-26-03)*

*e-mail: [axatovakamola21@gmail.com](mailto:axatovakamola21@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Shahar ko'cha-yo'l tarmoqlaridagi tirbandliklarni aniqlash va boshqa hududlardagi holat bilan solishtirgan holatda tegishli xulosa va taklif berish.

**Kalit so'z:** Tirbandlik, avtotransport, shahar ko'ch-yo'l tarmog'i, jamoat transporti, vaqt, xorijiy tajribalar.

**Аннотация:** Определить загруженность транспортных средств в улично-дорожных сетях города и сделать соответствующий вывод и предложение в сравнении с ситуацией в других регионах.

**Ключевые слова:** Движение транспорта, автотранспорт, городская дорожная сеть, общественный транспорт, время, зарубежный опыт.

**Abstract:** Determine the vehicle load in the city's road networks and make an appropriate conclusion and proposal in comparison with the situation in other regions.

**Key words:** Traffic, motor transport, urban road network, public transport, time, foreign experience.

Tirbandlikni keltirib chiqaradigan bir qancha omillar mavjud. Xususan, avtotransportlarning ko'pligi, ko'chalarda qurilish va ta'mirlash ishlarining bo'layotganligi, haydovchilarning tartibsiz harakatlanishi, yo'l-transport hodisalari yoki noqulay ob-havo sharoiti transport vositalarining harakatini cheklashi mumkin.

Avtomobilsozlik jadal rivojlana boshlaganidan beri yirik shaharlarda doimiy ravishda tirbandliklar yuzaga kelmoqda. Natijada, ko'p odamlarning vaqtlari behuda sarflanmoqda. Shu munosabat bilan mahalliy hokimiyat vakillari tirbandlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni asosiy vazifalari etib belgilab xorijiy tajribada sinovdan o'tgan loyihalarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Toshkentda ham bunday holatlar kuzatilmoqda.

**Toshkentdagi tirbandliklar.** 2023-yil 24-oktyabr kuni ertalab shaharning 20 ga yaqin asosiy ko'chalarida tirbandliklar yuzaga keldi. Transport vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 70 dan ortiq avtobus yo'nalishlari sayohat vaqtini va shoshilinch soatlik oraliqni kuzatish imkoniyati mavjud emasdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Hindiston aholisi tirbandlikdan eng ko'p aziyat chekmoqda. Chunki, bu mamlakatda turli xil transport vositalari tasodifiy

harakatlanmoqda va hatto politsiya ularni nazorat qila olmaydi. Ba'zi mamlakatlar tirbandlikning oldini olish uchun ma'lum cheklovlarni joriy qilmoqdalar. Masalan, **Singapurda** shaxsiy avtomobilga egalik qilish huquqi sotiladi va arzon emas.

Hozirgi vaqtda ushbu mamlakatda shaxsiy avtomobilga egalik qilish uchun ruxsat olish 70 mingdan 106 ming dollargacha turadi. Odamlar shaxsiy transport vositasiga bir qancha pul sarflashdan ko'ra, yaxshi rivojlangan jamoat transportida yurishni afzal ko'rishadi.



*2-rasm. Singapurda kuzatilayotgan tirbandlik*

**Indoneziyada** 1992 yilda qabul qilingan qonunga binoan yirik shaharlardagi haydovchilar o'zlari bilan yana ikki kishini olib yurishlari shart. Agar ko'chada harakatlanayotgan mashinada faqat haydovchi bo'lsa, u jarimaga tortiladi.

**Los-Anjelesda**, agar haydovchi mashinada kamida ikki kishini olib ketayotgan bo'lsa, unga alohida bo'lakda haydash orqali tirbandlikni chetlab o'tish imkoniyati beriladi.

Ba'zi mamlakatlarda tirbandlikni oldini olish uchun yirik shaharlarda avtomobillar soniga cheklovlar qo'yildi. Ya'ni, bir kunda raqam oxirida toq raqam va boshqa kuni raqam oxirida juft raqam bo'lgan transport vositalariga ruxsat beriladi.

Pekin-Tibet avtomagistrali, 2010-yil 14-avgustda Pekindan Tibetga olib boradigan 260 kilometrlik avtomagistralda katta tirbandlik paydo bo'ldi. Natijada, millionlab odamlar ikki hafta davomida yo'llarda qolib ketishdi.

Yo'ldagi ta'mirlash ishlari tirbandlikka sabab bo'ldi. Ko'pgina mashinalar to'liq to'xtab qoldi va ularning kunlik yurishi atigi 1 kilometrni tashkil etdi.

Yo'lda mashinalar o'g'irlana boshladi. 400 dan ortiq politsiya xodimlari ularni qo'riqlash uchun tirbandlik paydo bo'lgan hududga yuborilgan.

2012-yil 30-noyabrda **Moskva-Sankt -Peterburg** M-10 trassasi qor va muz bilan qoplangan, ko'plab yo'l-transport hodisalari sodir bo'lgan.

Shundan so'ng Tver viloyati ma'muriyati viloyat orqali o'tadigan trassaning bir qismini yopish to'g'risida qaror qabul qildi. Natijada 200 kilometrlik tirbandlik paydo bo'ldi.

Yo'llarni tozalashda ko'plab maxsus uskunalar ishtirok etdi. Biroq, ular yo'llarni tozalay olmadilar. Avtomobillar tirbandlikda 3 kun turdi. Shundan so'ng, Rossiya favqulodda vaziyatlar vazirligi yo'l chetlariga iliq chodirlar o'rnatdi va sovuqda qolib ketgan haydovchilar va yo'lovchilarga issiq ovqat va choy tarqatdi. Og'ir vaziyatga tushib qolgan odamlarning bir qismi evakuatsiya qilindi.

- Jamoat transporti samaradorligini oshirish, yo'lovchilarning harakatlanishga sarflaydigan vaqtlarini kamaytirish maqsadida, peresadka qilishga mo'ljallangan qulay tariflarni keng qo'llagan holda qisqa masofali avtobus yo'nalishlarini joriy etish.

- Tirband ko'chalarda avtobuslar harakat xavfsizligini ta'minlash, harakatlanishda yo'qotilayotgan vaqtni kamaytirish maqsadida, shohko'chalarda faqat to'g'ri harakatlanadigan magistral avtobus yo'nalishlarini joriy qilish.

- Poytaxtga shahar atrofi hududlaridan kunlik kirib keladigan hamda yetkazib chiquvchi va magistral yo'nalishlar kesishgan joylarda piyodalar uchun qulay xavfsiz muhitni (infratuzilmani) yaratish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.X. Azizov "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" –Toshkent. «Fan vatexnologiya»,
2. <https://yandex.ru/images/search>
3. <https://kun.uz/uz/63808093>
4. <https://daryo.uz/>